

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA XODIMLAR SALOMATLIGINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Ubaydullayeva Ma'rifat Amondulla qizi

Toshkent shahridagi Puchon universiteti
magistratura bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu ishda maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlar salomatligining psixologik-pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Pedagoglar va tarbiyachilarning jismoniy hamda ruhiy barqarorligi ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan. Xodimlar salomatligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar - stress, emotsional charchoq, motivatsiyaning pasayishi va jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit xususiyatlari yoritiladi. Psixologik qo'llab-quvvatlash, sog'lom ishlar muhiti yaratish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, interfaol metodlardan foydalanish va jamoaviy hamkorlikni mustahkamlash xodim salomatligini saqlashda muhim omil ekani asoslab beriladi. Shuningdek, pedagoglar salomatligini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar keltirilib, sog'lom psixologik-pedagogik muhit ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: emotsional barqarorligi, stress, ijtimoiy farovonlik, sotsial-psixologik muhit, motivatsiya.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi, avvalo, unda faoliyat yuritayotgan xodimlarning jismoniy va psixologik salomatligiga bog'liq. Tarbiyachi, psixolog, direktor o'rinbosari va boshqa xodimlar bolalar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotda bo'lgani uchun ularning emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi va ish muhitidagi ruhiy qulaylik darajasi yuqori ahamiyat kasb etadi. Shu bois xodimlar salomatligini psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash zamonaviy ta'lim siyosatida muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Xodimlar salomatligining mohiyati - maktabgacha ta'lim xodimlarining salomatligi – bu faqat jismoniy barqarorlik emas, balki psixik, emotsional va ijtimoiy farovonlikni o'z ichiga olgan integral holatdir. Pedagog o'z ish jarayonida yuqori darajada mas'uliyat, hissiy zo'riqish va doimiy muloqotga duch keladi. Shuning uchun salomatlikka qaratilgan yondashuv kompleks bo'lishi zarur.

Psixologik salomatlik – stressni boshqarish, ichki muvozanat, barqaror emotsional holat. Pedagogik salomatlik – ish uslubi, bolalar bilan munosabat, kommunikativ madaniyat. Ijtimoiy salomatlik – jamoadagi o'zaro munosabat, qo'llab-quvvatlash muhitidir.

Psixologik omillar va ularning ta'siri maktabgacha ta'lim xodimlari ko'pincha quyidagi psixologik xavf omillariga duch keladilar:

1. Emotsional charchoq (burnout)- katta mas'uliyat, doimiy diqqat, bolalar ehtiyojlariga javob berish zarurati hissiy charchoqni yuzaga keltiradi. Bu xolat o'z vaqtida bartaraf etilmasa, kasbiy samaradorlik pasayadi.

2. Stress va qo'rg'oqlik holatlari jamoa ichidagi ziddiyatlar, ish hajmining ortishi, qaror qabul qilish bosimi xodimlarda stressni kuchaytiradi.

3. Motivatsiyaning pasayishi-himoya va qo'llab-quvvatlash mexanizm-larining yetishmasligi, mehnatni rag'batlantirish tizimining samarasizligi ish unumdorligini pasaytiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan xodimlar salomatligini ta'minlash quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

1. Sotsial-psixologik muhitni yaxshilash jamoada sog'lom ma'naviy muhit yaratish, konstruktiv muloqot va hamkorlik madaniyatini takomillashtirish xodimlar o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlaydi.

2. Innovatsion va interfaol usullardan foydalanish ilg'or pedagogik texnologiyalar xodimning ish jarayonini yengillashtiradi, bolalar bilan ishlashda ijodkorlikni oshiradi va ruhiy zo'riqishni kamaytiradi.

3. Pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish ta'lim tashkilotlarida muntazam seminarlar, treninglar, master-klasslar o'tkazilishi xodim-larning psixologik barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Refleksiya va o'z-o'zini baholash pedagog o'z faoliyatini tahlil qilishi, muammolarni aniqlashi va yechim izlashi orqali emotsional barqarorlikka erishadi.

Psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi maktabgacha ta'lim tashkilotida xodimlar salomatligini qo'llab-quvvatlash uchun quyidagi tizim ishlab chiqilishi zarur:

1. Psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish xodimlar bilan individual va guruhviy suhbatlar; stressni boshqarish, emotsional barqarorlik bo'yicha mashg'ulotlar;

krizis holatlarini bartaraf etish texnikasi.

2. Sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash jismoniy faoliyat uchun sharoit yaratish; to'g'ri ovqatlanish madaniyatini shakllantirish;

dam olish va ish va qo'shimcha yuklamalarni muvofiqlashtirish.

3. Pozitiv psixologik muhit yaratish mehnatni rag'batlantirish;

jamoaviy tadbirlar;

ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.

Maktabgacha ta'lim tizimida xodimlar salomatligi – butun ta'lim jarayoni samaradorligining asosiy omilidir. Psixologik-pedagogik yondashuvlar xodimlarning ruhiy barqarorligi, ish unumdorligi va bolalarga nisbatan ijobiy munosabatini ta'minlaydi. Shu bois MTTlarda xodimlar salomatligini muhofaza qilish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish kompleks tizim sifatida amalga oshirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. Salomov A.R. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: "O'qituvchi", 2019.

3. Usmonov Q., Rahimov Sh. Pedagogik mahorat va pedagogning shaxsiy rivojlanishi. – Toshkent: "Fan", 2021.

4. Ganieva M.M. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: "Ilm-ziyo", 2020.

5. Abdullayeva N.Sh. Improving the preschool education system on the basis of cluster technologies// Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation, B. 36872-36886 2021 y

10. Валиева Ф.Р Теоретические основы и эволюция системы крп в управления человеческими ресурсами// Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida bo'lib o'tgan "Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini rivojlantirish: amaliyot va xorijiy tajriba" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
MATERIALLAR TO'PLAMI 1-qism 2024-yil 23-24-may

6. Валиева Ф.Р. Роль женщин-ученых в области социально-гуманитарных наук в формировании фундамента третьего возрождения в новом Узбекистане// «Эконмика и социум» №3(118) 2024/www.iypr.ru